Hozirgi global iqtisodiy o‘zgarishlar va raqobat muhitining kuchayishi sharoitida kichik biznes milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, raqobat muhitini shakllantirish, innovatsion faollikni rag‘batlantirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim o‘rin egallaydi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda kichik biznesning rivojlanishi faqatgina tadbirkorlik subyektlari sonining ko‘payishi bilan emas, balki ularning uzoq muddatli va samarali faoliyat yuritishi, tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashuvchanligi, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlash bilan belgilanadi. Shu sababli kichik biznesni barqaror rivojlantirishda raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish va davlat tomonidan samarali qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, xususiy sektorning ulushini oshirish, investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan [1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish va ularning barqaror faoliyatini ta’minlash alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda. Jumladan, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash, ularning biznes yuritish ko‘nikmalarini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [2]. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik darajasini baholash va ularni rag‘batlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar kichik biznesning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [4].

Kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlashda raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvlar tadbirkorlik subyektlariga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi bozorlarga chiqish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobat ustunliklarini shakllantirish imkonini beradi.

Andijon viloyati misolida kichik biznesning rivojlanish jarayonlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki mazkur hududda kichik biznes iqtisodiy o‘sish, aholi bandligini ta’minlash va tadbirkorlik faolligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari sonining ortishi bilan bir qatorda, ularning bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishi, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishi va raqobatbardoshligini ta’minlashi masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, kichik biznesni barqaror rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganish, ularning hududiy iqtisodiyotga ta’sirini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlash orqali sohani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — kichik biznesni barqaror rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini tadqiq etish, Andijon viloyati misolida kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish hamda ularning samarali faoliyatini ta’minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- kichik biznesni barqaror rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganish;
- kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilish;
- Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasini baholash;
- kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;
- sohani rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari olingan bo‘lsa, tadqiqot predmetini kichik biznesni barqaror rivojlantirish jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kichik biznesni barqaror rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganish hamda Andijon viloyati misolida uning rivojlanish tendensiyalarini baholash maqsadida statistik, qiyosiy va dinamik tahlil, shuningdek, tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlari, «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda Andijon viloyati statistika boshqarmasining 2019–2025-yillarga oid rasmiy statistik ma’lumotlari tashkil etdi.

Tahlil jarayonida kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, investitsiyalar, tashqi savdo (eksport va import) hamda bandlik ko‘rsatkichlari baholandi. Olingan natijalar asosida sohaning barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, kichik biznes subyektlarining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni barqaror rivojlantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng oʻrganilgan boʻlib, ushbu yoʻnalishdagi tadqiqotlarda asosiy eʼtibor tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi, innovatsion faolligi va ularni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlariga qaratilgan.

Kichik biznesning iqtisodiy taraqqiyotdagi oʻrni boʻyicha xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mazkur sektorning bandlikni taʼminlash, innovatsiyalarni joriy etish va raqobat muhitini shakllantirishdagi ahamiyati alohida taʼkidlangan. Xususan, kichik biznes subyektlarining bozor oʻzgarishlariga tez moslashuvchanligi, resurslardan samarali foydalanishi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish qobiliyati ularning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini belgilaydi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari A. Smit, Y. Shumpeter, P. Druker kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarida oʻz aksini topgan. Y. Shumpeter tadbirkorlikni innovatsion jarayonlarni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida baholagan boʻlsa, P. Druker zamonaviy biznes rivojida innovatsiya va boshqaruv samaradorligining ahamiyatini asoslab bergan [5; 6]. A. Smit esa bozor mexanizmlari va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy oʻsishdagi oʻrniga alohida eʼtibor qaratgan [7].

Ushbu yondashuvlar bugungi kunda kichik biznesni barqaror rivojlantirishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznesning barqaror rivojlanishi raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish va ekologik barqarorlik tamoyillari bilan bogʻliq holda tadqiq etilmoqda. Xususan, raqamlashtirish jarayonlari kichik biznes subyektlariga boshqaruv samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, elektron tijorat imkoniyatlaridan foydalanish va yangi bozorlarga chiqish imkonini beruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonlik olimlar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari keng tadqiq etilmoqda. Xususan, D.S. Qosimova oʻz ishlarida kichik biznes subyektlarini tashkil etish, boshqarish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalarini yoritgan [8]. O.A. Aripov tadqiqotlarida tadbirkorlikni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish va institutsional mexanizmlarni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan [9]. Shuningdek, O.H. Xudoyqulov, M.A. Shanayev va X.M. Israilova kichik biznes subyektlari faoliyatining iqtisodiy tahlili hamda ularning moliyaviy samaradorligini baholashga oid ilmiy xulosalarni keltirganlar [10].

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisidagi Farmonida mamlakat iqtisodiyotining barqaror oʻsishini taʼminlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish boʻyicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur hujjat kichik biznesni rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirishda muhim manba hisoblanadi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-306-son qarorida kichik biznes subyektlarini uzluksiz qoʻllab-quvvatlash, ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish boʻyicha mexanizmlar belgilangan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kichik biznesni rivojlantirish masalalari boʻyicha koʻplab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan boʻlsa-da, hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyatini taʼminlash, raqamli transformatsiya jarayonlarining taʼsiri, eksport salohiyatini oshirish va faoliyatsiz subyektlar ulushini kamaytirish masalalari yanada chuqur oʻrganishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada Andijon viloyati misolida kichik biznesning 2019–2025-yillardagi rivojlanish koʻrsatkichlari tahlil qilinib, kichik biznesni barqaror rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini takomillashtirish boʻyicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga harakat qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznesni barqaror rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini oʻrganish va Andijon viloyati misolida uning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesning barqaror rivojlanish darajasini baholashda nafaqat subyektlar soni, balki ularning iqtisodiyotdagi ulushi, investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki, eksport salohiyati, import operatsiyalaridagi oʻrni hamda aholi bandligini taʼminlashdagi hissasini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki

mazkur ko'rsatkichlar kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi, raqobatbardoshligi va hududiy iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, Andijon viloyatida 2019–2025-yillar davomida kichik biznesning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi ishtiroki, eksport va import operatsiyalaridagi ulushi hamda aholi bandligini ta'minlashdagi roli asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

1-jadval

Andijon viloyatida 2019-2025 yillarda kichik biznesning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

| Yillar | YAHMdagi ulushi | Investisiyadagi ulushi | Eksportdagi ulushi | Importdagi ulushi | Bandlikdagi ulushi |
|---|---|---|---|---|---|
| **2019** | 72,4 | 61,7 | 58,9 | 15,2 | 82,1 |
| **2020** | 72,7 | 59,8 | 44,5 | 12,6 | 80,8 |
| **2021** | 74,6 | 56,1 | 36,5 | 13,1 | 80,7 |
| **2022** | 69,5 | 59 | 39,3 | 11 | 80,2 |
| **2023** | 68,6 | 69,2 | 29,4 | 16,2 | 80,7 |
| **2024** | 70,1 | 73,8 | 36,3 | 18,6 | 81,3 |
| **2025** | 70,1 | 81,5 | 47,5 | 22,6 | 81,3 |

*Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2019–2025-yillar davomida Andijon viloyatida kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi roli yuqori darajada saqlanib qolgan. Xususan, kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi tahlil davrida 68,6–74,6 foiz oralig'ida shakllangan.

Mazkur ko'rsatkichning eng yuqori darajasi 2021-yilda 74,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 68,6 foizgacha pasaygan. Keyingi yillarda ko'rsatkich barqarorlashib, 2025-yilda 70,1 foizni tashkil etgan. Bu holat kichik biznes subyektlarining hudud iqtisodiyotida muhim o'rin egallayotganini va iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

Kichik biznesning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki tahlil qilinganda, 2019–2022-yillarda ma'lum darajada o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, 2023-yildan boshlab sezilarli o'sish tendensiyasi shakllangan. Agar 2019-yilda kichik biznesning investitsiyalardagi ulushi 61,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 81,5 foizga yetgan.

Bu holat kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va investitsiya faolligini oshirish jarayonlari kuchayganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, investitsiya hajmining o'sishi kichik biznesning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Eksport ko'rsatkichlari dinamikasiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, 2019-yilda kichik biznesning eksportdagi ulushi 58,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 29,4 foizgacha kamaygan. Bu davrda tashqi bozorlardagi raqobat muhiti, eksport tarkibidagi o'zgarishlar va kichik biznes subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlariga ta'sir qiluvchi omillar mazkur ko'rsatkich dinamikasida aks etgan.

Biroq 2024–2025-yillarda eksport ko'rsatkichlarida tiklanish kuzatilib, 2025-yilda kichik biznesning eksportdagi ulushi 47,5 foizni tashkil etgan. Bu holat eksport faoliyatini rag'batlantirish, tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha ko'mak ko'rsatish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlarining samaradorligini ifodalaydi.

Kichik biznesning importdagi ulushi tahlil qilinganda, 2019–2022-yillarda mazkur ko'rsatkich nisbatan past darajada bo'lgan bo'lsa, 2023-yildan keyin o'sish tendensiyasi kuzatilgan. 2025-yilda kichik biznesning importdagi ulushi 22,6 foizni tashkil etgan.

Ushbu o'sish asosan ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy uskunalar, texnologiyalar va xom ashyoni jalb qilish bilan bog'liq. Biroq kelgusida import hajmini oshirish bilan bir qatorda, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va mahalliylashtirish jarayonlarini kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kichik biznesning aholi bandligini ta'minlashdagi roli ham yuqori darajada saqlanib qolgan. Tahlil davrida mazkur ko'rsatkich 80,2–82,1 foiz oralig'ida bo'lgan. 2025-yilda kichik biznesning bandlikdagi ulushi 81,3 foizni tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich kichik biznes subyektlarining nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ham ko'rsatadi. Kichik biznes aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishning muhim manbai hisoblanadi.

Umuman olganda, Andijon viloyati misolidagi tahlillar kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda kichik biznesning barqarorligini ta'minlash uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faollikni oshirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va investitsiya jarayonlarini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Kichik biznesni barqaror rivojlantirishni baholashda faqat tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni emas, balki ularning amaldagi iqtisodiy faolligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yangi biznes subyektlarining tashkil etilishi tadbirkorlik muhitining rivojlanayotganini ko'rsatsa, ularning real faoliyat yuritishi iqtisodiy barqarorlik va samaradorlik darajasini belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan, Andijon viloyatida 2019–2025-yillarda kichik biznes subyektlarining ro'yxatdan o'tgan umumiy soni, amalda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar soni hamda ular o'rtasidagi nisbat tahlil qilindi.

2-jadval.
Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining faollik darajasi dinamikasi (2019-2025 yillar)

| Yil | Jami ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari, ta | Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari, ta | **Faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlar (hisobiy), ta** | **Faoliyatsiz subyektlar ulushi, %** |
|---|---|---|---|---|
| 2019 | 28 880 | 25 807 | 3 073 | 10,6 |
| 2020 | 35 795 | 31 683 | 4 112 | 11,5 |
| 2021 | 38 057 | 35 795 | 2 262 | 5,9 |
| 2022 | 38 038 | 36 900 | 1 138 | 3 |
| 2023 | 42 166 | 27 230 | 14 936 | 35,4 |
| 2024 | 44 924 | 24 381 | 20 543 | 45,7 |
| 2025 | 47 358 | 20 626 | 26 732 | 56,4 |

*Manba: Andijon viloyati statistika ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2019–2025-yillar davomida Andijon viloyatida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2019-yilda ularning soni 28 880 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 47 358 taga yetgan. Ya'ni tahlil davrida kichik biznes subyektlari soni qariyb 1,6 barobarga oshgan.

Mazkur holat hududda tadbirkorlik faolligining ortishi, yangi biznes tashabbuslarining shakllanayotgani va kichik biznes uchun yaratilgan imkoniyatlar kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Biroq kichik biznesning barqaror rivojlanishini baholashda subyektlar sonining o'sishi bilan bir qatorda, ularning amaldagi faollik darajasini ham hisobga olish zarur. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda ro'yxatdan o'tgan 47 358 ta kichik biznes subyektidan 20 626 tasi amalda faoliyat ko'rsatgan. Natijada faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning umumiy ro'yxatdan o'tgan subyektlar sonidagi ulushi 43,5 foizni tashkil etgan.

Bu holat kichik biznesni rivojlantirishda yangi subyektlarni tashkil etish bilan bir qatorda, ularning hayotiylik davrini uzaytirish, bozor sharoitida samarali faoliyat yuritishini ta'minlash va iqtisodiy barqarorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2022-yillarda faoliyatsiz subyektlar ulushi nisbatan past darajada bo'lgan. Xususan, 2022-yilda mazkur ko'rsatkich 3,0 foizni tashkil etgan. Bu davrda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlarining asosiy qismi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etgan.

2023-yildan boshlab esa faoliyatsiz subyektlar ulushida keskin o'sish kuzatilgan. 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 35,4 foizni, 2024-yilda 45,7 foizni, 2025-yilda esa 56,4 foizni tashkil etgan.

Mazkur o'zgarishlarni baholashda faqat salbiy omillar bilan cheklanmasdan, statistik hisobot tizimidagi o'zgarishlar, faol va nofaol subyektlarni ajratish mezonlarining takomillashuvi hamda iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarni hisobga olish lozim.

Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkichlar kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyatini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, yangi tashkil etilgan korxonalarni dastlabki bosqichda qo'llab-quvvatlash, biznesni rejalashtirish ko'nikmalarini oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli xizmatlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy yondashuvlar asosida kichik biznesning barqarorligini ta'minlash uchun davlat qo'llab-quvvatlash choralarini faqat yangi subyektlarni tashkil etishga emas, balki mavjud subyektlarning iqtisodiy faolligini saqlab qolish va rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, Andijon viloyatida kichik biznes subyektlari soni o'sib borayotgan bo'lsa-da, ularning samarali va uzoq muddatli faoliyatini ta'minlash kelgusidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi. Bu esa kichik biznesni barqaror rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini yanada takomillashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish va tadbirkorlik subyektlariga kompleks xizmatlar ko'rsatishni talab etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu soha aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobat muhitini shakllantirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotda kichik biznesni barqaror rivojlantirishning asosiy zamonaviy yondashuvlari sifatida raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va yashil iqtisodiyot tamoyillaridan foydalanish masalalari yoritildi.

Andijon viloyati misolida 2019–2025-yillar davomida kichik biznesning asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, sohaning hududiy iqtisodiyotdagi o'rni yuqori darajada saqlanib qolayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari sonining o'sishi ularning barqaror faoliyati bilan doimo ham uyg'unlashmasligi kuzatildi. Bu esa yangi subyektlarni tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli va samarali faoliyatini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlariga dastlabki bosqichda konsalting, axborot va moliyaviy ko'mak xizmatlarini kuchaytirish;
- raqamli texnologiyalar, elektron tijorat va zamonaviy boshqaruv vositalarini keng joriy etish;
- eksport salohiyatini oshirish uchun marketing, sertifikatlash va tashqi bozorlarga chiqish xizmatlarini rivojlantirish;
- innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish;
- kichik biznesning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- resurs tejamkor va ekologik texnologiyalarni joriy etish orqali yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng tatbiq etish.

Umuman olganda, kichik biznesni barqaror rivojlantirish yangi subyektlarni tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan, ularning raqobatbardoshligi, iqtisodiy samaradorligi va uzoq muddatli faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilishi lozim. Andijon viloyati tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat qo'llab-quvvatlashi, raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga asoslangan kompleks yondashuv kichik biznes barqarorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ–306-son qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/-6609110?ONDATE=01.01.2025
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF–16-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7369703
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ–39-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6374137?ONDATE=03.04.2024%2000
4. Schumpeter J. A. *Teoriya ekonomicheskogo razvitiya: Issledovaniye predprinimatelskoy pribyli, kapitala, kredita, protsenta i tsikla kon'yunktury*. – Moskva: Progress, 1982.
5. Drucker P. F. *Innovatsii i predprinimatelstvo: praktika i printsipy*. – Moskva: Vilyams, 2007.
6. Smith A. *Issledovaniye o prirode i prichinakh bogatstva narodov*. – Moskva: Eksmo, 2016.
7. Qosimova D. S. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*: darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 328 b.

8. Aripov O. A. *Kichik biznes va tadbirkorlik*: darslik. – Namangan, 2021.
9. Xudoyqulov O. H., Shanayev M. A., Israilova X. M. *Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy tahlil*: monografiya. – Olmaliq, 2021.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. *Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati boʻyicha statistik maʼlumotlar*. – Toshkent, 2019–2025.
11. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. *Andijon viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati boʻyicha statistik toʻplamlar*. – Andijon, 2019–2025.

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

## 2026. № 7/1



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz